

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING BARKAMOL SHAXS  
TARBIYASI HAQIDAGI QARASHLARI

Andijon Davlat Pedagogika instituti Pedagogika fakulteti pedagogika  
yo'nalishi 301-guruh talabasi

**Usmonova Barno**

**Anotatsiya.** Sharq mutafakkirlarning o'z qarashlari bilan dunyodagi jamiki yoshlarni iqtidorli bo'lshiga sababchi bo'lib kelmoqda. Ta'lim rivojlanayaptimi albatta tarbiya ham rivojlanishi kerak. Chunki, insonning aqli joyida bo'lsa-yu, tarbiyasi bo'lmasa qiyin. Inson o'zi tug'ilgan vaqtidan boshlab tarbiya oladi. Biz bilamizki jamiyatdagi shaxslar ilmli, ahloqi joyida bo'lsa albatta boshqalar ham shu narsadan o'rnak oladi.

**Abstract.** The East, with its views, has been the reason for all the young people in the world to be talented. If education is developing, then upbringing must also develop. Because, even if a person has a good mind, it is difficult if he does not have upbringing. A person receives upbringing from the moment he is born. We know that if individuals in society are knowledgeable and morally sound, others will certainly follow suit.

**Kalit so'zlar.** Sharq, axloq, tarbiya, shaxs, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, mutafakkirlar,

**Kirish.**

Sharq madaniyati ham uning o'z qarashlari ham o'zgacha tarzda davom etdi. O'z davrining buyuk mutafakkirlari barkamol avlodni tarbiyalashda turli xil usullar o'ylab topishdi. Bu esa o'sha davrning o'zgacha qarashlari sifatida davom etdi. Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari, asosan, insonni ma'naviy-axloqiy jihatdan kamolga yetkazish, uning aql-zakovatini rivojlantirish, jamiyatga foydali va faol a'zo bo'lib yetishishiga qaratilgan. Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya borasidagi g'oyalarini quyidagi yo'nalishlarda





ko'rib chiqish mumkin:1. Axloqiy tarbiya – kamolot asosi. Sharq mutafakkirlari, xususan, Abu Nasr Farobi, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Yusuf Xos Hojib va boshqalar axloqiy tarbiyani inson kamolotining asosi deb hisoblaganlar. Ularning fikricha, ta'lim-tarbiya jarayonida avvalo o'quvchilarda yuksak axloqiy sifatlarni shakllantirish zarur. Bularga halollik, adolatparvarlik, mehribonlik, sadoqat, vatanparvarlik, o'zgalar dardiga sherik bo'lish kabi fazilatlar kiradi. Abu Nasr Forobi o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida ideal jamiyatning asosiy xususiyatlarini ta'riflab, unda axloqiy tarbiyaning muhim rolini ta'kidlaydi. Uning fikricha, har bir fuqaro o'z burchini sidqidildan bajarishi, jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlaridan ustun qo'yishi lozim. Abu Ali ibn Sino axloqiy tarbiyaning inson salomatligiga ta'sirini ham o'rgangan. Uning fikricha, yaxshi xulq-atvor insonning ruhiy holatini yaxshilaydi, uning tanasini kasalliklardan himoya qiladi. Alisher Navoiy o'zining "Mahbub ul-qulub" asarida insoniy fazilatlarni ulug'lab, yomon xulqlardan saqlanishga chaqiradi. Uning fikricha, yaxshi xulq insonning ziynati, yomon xulq esa uning nuqsonidir. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarida adolat, bilimdonlik, aql-zakovat, qanoat kabi fazilatlarni davlat boshqaruvida va jamiyat hayotida muhim omil deb biladi.2. Ilm-ma'rifatga intilish – yuksalish omili. Sharq mutafakkirlari ilmni insonning eng oliv maqsadlaridan biri deb hisoblaganlar. Ular o'quvchilarni doimo bilim olishga, o'rganishga va izlanishga undaganlar. Ilm orqali inson o'zini va olamni anglaydi, hayotda to'g'ri yo'lni topadi. Abu Rayhon Beruniy o'zining ilmiy asarlarida turli sohalarga oid bilimlarni jamlagan. Uning fikricha, ilm insonni jaholatdan qutqaradi, unga to'g'ri yo'l ko'rsatadi. Mirzo Ulug'bek o'z davrining yetuk olimi sifatida astronomiya, matematika va boshqa fanlarga oid bilimlarni rivojlantirgan. Uning Samarkanddagi rasadxonasi o'sha davrning eng yirik ilmiy markazlaridan biri bo'lgan. "Bolalarimizni birovlarining qo'lliga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko'proq gaplashish, ularning qalbiga qulq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy ananalarimizga,



ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz”, -deydi muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Aslini olganda ham tarixga bir nazar soladigan bo’lsak ajdodlarimizdan qolgan boy o’chmas merosimiz bor. Ta’lim berishda ham nimanidir o’qib, uni asoslab berishda ajdodlarimizdan qolgan merosimizdan foydalananamiz. Axir tarixni bilmay turib, tajribalarni o’rganmasdan keljak qurib bo’lmaydi. O’sib kelayotgan yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish, ularni yetuk ma’naviyatli shaxs sifatida shakllantirishda asrlar mobaynida shakllangan milliy ananalarimiz, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz albatta. Bu so’zlarimizga isbot qilib yuqorida prezidentimiz bildirgan fikrlarni keltirishimiz mumkin. O’zbek xalqi o’zining uzoq tarixi davomida yaratilgan ta’lim-tarbiyaga oid boy merosiga ega. Bundan tashqari, avlodlarda insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do’stlik, iyomon-e’tiqod, mehr-oqibat, odoblilik kabi umuminsoniylik fazilatlarini shakllantirishning o’ziga xos tajribasini to’plagan. Bizga ma’lumki, ma’naviy axloqiy fazilatlar hech qachon o’z-o’zidan vujudga kelmaydi, balki ularning kelib chiqishining haqiqiy manbai, ularning keltirib chiqargan sabablar va harakatga keltiradigan kuchlar mavjuddir. Zero, har qanday axloqiy qoidalar muayyan tarixiy zaruriyat natijasida vujudaga keladi va muayyan qonuniyat asosida rivojlanib boradi. Shuni alohida ta’kidlab o’tish kerkki, Sharq mutafakkirlarining ta’limtarbiyaga oid qarashlari bu tajribaning shakllanishiga ulkan ta’sir ko’rsatgan. Tarbiya ham ota-onalarning burchi va farzandlarning haqqidir. ”Tarbiya” so’zi arabcha “robba” fe’lidan olingan bo’lib, o’sirdi, ziyoda qildi, riyoasiga oldi, rahbarlik qildi va isloh qildi ma’nolarini bildiradi. Musulmon ulamolar ”Tarbiya”ni bir necha xil ta’rif qilganlar. Jumladan, imom Bayzoviy quyidagicha ta’riflaydi: ”Tarbiya bir narsani astasekin kamoliga yetkazishdir”, -deydi. Rog’ib Asfihoni esa quyidagicha ta’rif beradi: ”Tarbiya bir narsani bir holdan ikkinchi holga o’tkaza borib, batamomlik nuqtasiga yetkazishdir. Tarbiyaning ma’nolaridan biri, insonning diniy, fikriy va axloqiy quvvatlarini uyg’unlik hamda muvozanat ila o’sirishdir”.

Xulosa qiladigan bo’lsam, jamiyatning asosini oila tashkil qiladigan bo’lsa, albatta, oilalar ham ziyoli, o’z fikriga ega bo’lgan insonlar, eng yaxshi



liderlardan tashkil topsa yaxshi bo'lardi. Bitta bolani tarbiyalash uchun balki, ota-onasi yoki qo'shnilar balki, o'qituvchilarning ham o'z o'rni bor. Biz doimo ilm o'ganib, balkim xulqimizni ham go'zallashtirib bormog'imiz lozim. Biz birgina ota-onamiz yoki ustozimizdan emas balki, butun jamiyatdan o'rnak olamiz.

### **Foydalanilgan adabioylar:**

- 1.Sh.Mirziyoyev.O'zbekiston Respublikasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi.T.2016
- 2.Abu Nasr Forobiy, "Fozil odamlar shahri". — T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
- 3.To'xliyev B. "Qutadag'du bilig".—T.: "O'zbekiston". 1991.
4. Abu Ali ibn Sino hayoti va ijodiy merosi.—T.: "Fan". 1990.
- 5.Forobiy. Risolalar. —T.: "Fan". 1995.
- 6.<https://in-academy.uzPDFSHARQ>

**MUTAFAKKIRLARINING**

### **TA'LIMIY-AXLOQIY QARASHLARI**